

MUHAMMAD SHAYBONIYXON DAVRIDA
MOVAROUNNAHRDAGI IJTIMOIIY-IQTISODIY HAYOT

*Jumayev Jo‘rabek Boboqul o‘g‘li - Jizzax davlat
pedagogika universiteti Tarix fakulteti o‘qituvchisi,
Muhammadov Muhammadsolih Isomiddin o‘g‘li - Jizzax davlat
pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada tarixiy Dashti Qipchoqda “O‘zbek ulusi” deb nomlangan davlatni qayta tiklagan, XVI asr boshida yurtimizda yangi davlat barpo etgan Muhammad Shayboniyxon faoliyati tarixi haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Movarounnahr hududida Shayboniyxon tomonidan o‘z davri uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy isohotlar amalga oshirilgan bo‘lib, ular o‘sha davr manbalarida batafsil keltirib o‘tilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Dashti Qipchoq, Abulxayrxon, Muhammad Shayboniyxon “O‘zbek ulusi”, Muhammad Mazid, Muhammad Xitoy, Temuriylar davlati, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, pul islohoti, Dasht Qipchoq lochini.*

O‘zbek davlatchiligi tarixi ko‘plab buyuk davlatlar, o‘z davlatini idora etgan hukmdorlar va ular tomonidan amalga oshirilgan islohotlar, tanazzul va taraqqiyot bosqichlarini boshidan o‘tkazgan o‘lkalar haqida qiziqarli ma‘lumotlar beradi. Har bir davlatni yuksalishi, taraqqiyoti qaysidir ma‘noda salohiyatli, uddaburon hukmdorlarning uzoq ko‘zlab qilingan islohotlari natijasida amalga oshadi. Qadim tarixdan Eng yangi davr tarixigacha bo‘lgan davr mobaynida Vatanimiz tarixida munosib o‘rin egallagan shunday tarixiy shaxslar bisyordir. Ular sirasiga so‘nggi o‘rta asrlar tarixida faoliyat ko‘rsatgan Muhammad Shayboniyxonning ham o‘z o‘rni va ahamiyati katta hisoblanadi.

Shayboniyxon 1428-yilda “O‘zbek ulusi” davlatining asoschisi hisoblangan Abulxayrxon nabirasi edi. Tarixdan ma‘lumki, Muhammad Shayboniyxon 1451-yilda tug‘ilgan bo‘lib, ota-onasidan erta yetim qolgan.

Muhammad Shayboniy va uning ukase Mahmudlarning keyingi taqdiri bobosi va tarbiya ishlari Boyshayx qo'lida qoladi[www.wikipedia.uz internet sayti].

Sadulla Siyoyevning “Dashti qipchoq lochini” asarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra Abulxayrxon vafotidan so'ng Shayboniyxon va uning ukasi Mazid Tarxon qo'lida qoladi. Bir davrlarda Abulxayrxon tiriklik vaqtida Mazid Tarxonga ikkita shaharni topshirgan edi. Shundan keyin, qaysidir ma'noda bu sulola vakillariga Muhammad Mazid o'z homiyiligini amalga oshiradi.

Mazid Tarxon Sulton Muhmudni o'zini yonida olib qoladi va tarbiyasi bilan o'zi shug'ullanadi. Muhammad Shayboniyxonni esa, Buxoroga Muhammad Xitoyning oldiga shariat ilmlarini olishga yubordi. Shu tariqa yosh Muhammad Yassaviy zamonidan qolgan tariqatni o'rganishni boshladi. Xitoydan so'ng shayx Mansurdan fiqh masalalarini o'rgandi. 18 yoshiga to'lib endi tug'ilgan elga borib bobosidan keyin parokanda bo'lgan davlatni qayta tiklashga kirishdi [Siyoyev S. 2021. 6-9-b.].

XV asrning oxirida temuriy hukmdor va shahzodalar o'rtasida kurashlar kuchaygan davr edi. Ayni, shu davrda 1470-yillardan boshlab Temuriylar davlati hududini yaxshilab o'rgangan holda, egallash uchun tayyorgarlik va harakatlarni boshlaydi. Keng ko'lamli yurishlar natijasida 1499-1507-yillar mobaynida Movarounnahr, Xorazm, Xuroson yerlari to'laqonli Muhammad Shayboniyxon qo'lga o'tadi. Ushbu maqola orqali Muhammad Shayboniyxon tomonidan Movarounnahrda amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar tarixi haqida ma'lumotlar berib o'tamiz.

Herman Vamberi Muhammad Shayboniyxon haqida “Shayboniyxon maorif va madaniyat haqida o'z davrining ruhidan to'la xabardor va hatto maorif jihatidan oldinga Temur shahzodalarning aksaridan past emas edi”[Vamberi H. 1990. 92-b.] deb yozadi.

Zamonasidagi tengdosh shoirlarning aksariyatidan ortiq darajada qalam sohibi bo'lgan. Chunki uning she'rlari buyuk bir iqtidor va go'zal tabiatga molik ekanini, u ham turkiy ham forsiy ham arabiy tillardan asosli suratda voqif ekanini ko'rsatmoqda. Sulton Husayn Boyqaroning vafotidan keyin bir siqim donga

muxtoj qolgan ko'pgina ulamolalar Shayboniydan panoh topdilar. U ulamolarni xizmatga olib, munosib vazifalar berdi. Buxoro, Samarqand, Toshkentda masjidlar, madrasalar solishga amr etdi. Hatto harbiy yurishlarda ham o'z atrofida bir necha ulamo bo'lgan va bular unga hurmat hamda sadoqat ko'zi bilan qarashgan.

Shayboniyxon davlatni iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustahkamlash yo'lida qator islohotlar o'tkazdi. Bular sirasiga:

Birinchiidan- u davlat boshqaruvida suyurg'ol tizimini joriy etdi, ya'ni zabt etilgan hududlarni boshqarish ishini o'z farzandlariga, qarindosh-urug'lariga, birodarlariga, qabila boshliqlari bo'lgan sultonlarga topshiradi. Xususan, "Balx – Sultonshohga, Andijon – Mahmud sultonga, Toshkent – Suyunchxoja, Xorazm – Kepakbiy qushchiga, Samarqand va Kesh Muhammad Temurga, Buxoro va Qorako'l – Mahmud sultonga, Turkiston esa Ko'chkunchixonga taqdim etilgan"[Hofiz Tanish al-Buxoriy. 103-b.]. Samarqand poytaxt sifatida xon taxtiga o'tqaziladigan joy hisoblangan. U yerda xon sharafiga xutba o'qitilgan va pul zarb etilgan.

Ikkinchiidan, u mamlakatda yer-suvni qaytadan taqsim qildi. Ko'chmanchi qabila zodagonlari yengilgan mahalliy mulkdorlar mol-mulkini musodara qilish, sotish, egasiz qolgan yerlarni o'zlariniki qilib olish yo'li bilan mulklarini ko'paytirib oldilar.

Uchinchiidan, mamlakat ichida ijtimoiy hayotni tartibga solishga imkon beruvchi islohot ham o'tkazdi. Keyingi 10 yil ichida soliqlar og'irligidan va mulkdorlar jabr-zulmidan yer-suvlarini tashlab ketgan xo'jaliklar yerlarini ishga tushirish masalasini ko'rib chiqdi.

To'rtinchiidan, Shayboniyxon 1507-yilda pul islohotini o'tkazdi. "Bunga ko'ra, mamlakatning hamma katta shaharlarida vazni bir xil – 5,2 gramm bo'lgan yangi kumush tangalar hamda mis chaqa pullar zarb qilinib muomalaga chiqarildi"[Ernazarova T., Kochnev B. 1977.]. Bu islohot iqtisodiyotni tartibga solish va savdo-sotiqni jonlantirish maqsadida o'tkazilgan edi. Ayni paytda bu islohot markaziy hokimiyatning siyosiy va iqtisodiy mavqeyini kuchaytirishga,

mahalliy hokimlar mavqeini esa kuchsizlantirishga, dehqonlarning soliq to'lash imkoniyatini oshirishga, davlat va xon mulkini ko'paytirishga imkon berdi.

Beshinchidan, Shayboniyxon ta'lim sohasida ham islohotlar o'tkazdi. Bu islohotning o'tkazilishiga amaldorlar guruhini vujudga keltirish va ularni jamiyatning asosiy tayanchiga aylantirish zarurati sabab bo'ldi. Xonlarga va sultonlarga barcha sohalar bo'yicha ilmi, diplomat qobiliyatiga ega bo'lgan amaldorlar zarur edi.

Shayboniydar davlatida xo'jalikning asosi dehqonchilik bo'lib, dehqonlar asosiy ishlab chiqaruvchi kuch edi. Mamlakatdagi tarqoqlik, to'xtovsiz urushlar mamlakat iqtisodini inqirozga, dehqonlarni esa qashshoqlanishiga olib keldi. Urush harakatlari natijasida soliqlar ko'paydi. Farg'ona va Andijon vodiylaridan dehqonlar qocha boshladi. Shayboniyxon va uning avlodlari – xonlar dehqonchilikni jonlantirish maqsadida soliqlarni ma'lum vaqtgacha kamaytirdi.

Dehqonchilikning har qaysisida o'ziga xos, ayrimlaridan pul hisobida, ayrimlaridan natura shaklida soliq olinardi. Masalan, “paxtakorlardan «g'o'za puli» olingan”[Muqimov Z. 2007. 78-b.].

Agrar munosabatlar eskicha qolib, yerlarning asosiy qismi mamlakati podshoh yoki mamlakati sulton deb atalgan. Bu umumdavlat yerlari bo'lib, uning egasi davlat boshlig'i - xondir. Bu yerlarga nafaqat ekinzorlar, balki shahar yerlari, bozorlar ham kirgan. Bulardan umumdavlat yeriga “tashlandiq yerlar”, “ekin ekilmaydigan yerlar” ham kirgan va bu yerlardan foydalangan mahalliy oqsuyaklar, shu jumladan ruhoniylar yerni dehqonlarga foydalanishga topshirgan.

Dehqonlar ham davlatga, ham zodagonga soliq to'laganlar. Bu soliq “malvadjihat” deb atalgan. Bundan tashqari yana bir qancha kattayu kichik soliqlar yig'ilar edi. Jumladan, dorug'ash - soliq yig'uvchilar va viloyat hokimlari foydasiga, zakot - mol boshiga, umuman mol-mulkdan olinadi. Zabitona - hukmdor foydasiga maxsus soliq; tanobona - bog' va bog'chadan olinadi; madadi lashkar - harbiy soliq. Soliqlar hajmi har yerda, har davrda turlicha bo'lgan[Muqimov Z. 2007. 96-b.].

Zodagonlar egallagan davlat yerlarining shakllari har xil: suyurg'ol, iqto', tanho va boshqalar edi. Suyurg'ol hukmron sulola a'zolari, yirik davlat arboblari va harbiy qo'mondonlarga berilib, ular yerni to'lig'i bilan o'zlari boshqarar va soliqlar yig'ib olar va bir qismini davlat xazinasiga topshirardilar. Suyurg'ol egalari g'oyat katta siyosiy huquqqa ega bo'lishgan.

XVII asrdan boshlab suyurg'ol xonga sodiqligi uchun din arboblari, shoirlar, olimlarga mukofot sifatida beriladigan bo'ldi. XV asrda temuriylar davrida mavjud bo'lgan yerga egalik shakli –iqto' saqlanib qoldi. Bu yerlar hukmron xon avlodlariga, yirik davlat va harbiy arboblarga berilgan. Iqto' hajmi har xil bo'lib, iqto' egalari - iqtadorlar o'zlarining harbiy kuchlariga ega bo'lgan.

XVI asrdan boshlab O'rta Osiyoda yangi yer egaligi tanho, kichik xizmatkorlarga beriladigan yerlar paydo bo'ldi. Tanho hajmi - tanhodorlar xizmatiga yarasha - bir necha uydan yoki bir necha qishloqlardan olinishi mumkin edi. Tanhoga ekin ekiladigan yerlarga balki tegirmon, moyjuvozlardan keladigan daromadlar ham qo'shib berilgan. Yerning kichik va yirik zodagonlarga, amaldorlarga har xil shaklda tarqatib berilishi davlat xazinasidagi daromadni kamaytirdi va xon hokimiyatini zaiflashtirdi, mamlakatda tarqoqlik kuchaydi.

Yer egaligining alohida ko'rinishini vaqf yerlar tashkil qilgan. Vaqf yerlar xon tomonidan musulmon ruhoniylariga mos qilib beriladigan yerlar bo'lib, bu yerlardan kelgan daromadlar ko'pincha qozi kalonlarga, mutavallilarga (vasiylarga) tushardi. Vaqfga tarqatilgan yerlardan tashqari mulklarnig hajmi ba'zan katta miqdorni tashkil qilardi.

Shayboniylar davridagi aholining asosiy qismini dehqonlar, yarim ko'chmanchilar va qisman ko'chmanchi-chorvadorlar tashkil etardi. To'xtovsiz o'zaro to'qnashuvlar mehnatkash aholining turmush darajasiga salbiy ta'sir qildi. Dehqonlarni ezishning asosiy shakli - davlat, vaqf va mulk yerlarini ijaraga berishdan iborat edi. Bu yer dehqonning merosi hisoblansa ham yer egasi xohlagan vaqtda tortib olishi va boshqaga sotishi mumkin edi. Shuning uchun dehqon mehnat unumdorligini oshirishdan manfaatdor emasdi. Undan tashqari,

dehqonlar uchun o'z mahsulotlarini bozorga chiqarib sotish ko'p qiyinchiliklarni bartaraf etishni talab qilardi [Karimov I.I. 2018. 47-48-b.] .

Xulosa qiladigan bo'lsak, Muhammad Shayboniyxon Dashti Qipchoq lochini sifatida ta'riflanib, yoshligidan ko'p qiyinchiliklar va tahdidlarga duchor bo'lgan. Darbadarlikda bo'lsada ilm olishni to'xtatmaydi, harbiy mahoratini oshirib boradi. Dashti Qipchoqda bobosi davlatini qayta tiklab, o'z yurishini Temuriylar davlati tomon buradi. Muhammad Shayboniyxon Movarounnahr, Xorazm, Xurosonda o'z davlatini barpo etadi. Shayboniyxon kam vaqt hukmronlik qilgan bo'lsada davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini ijobiy shakllantirish uchun qator islohotlarni amalga oshiradi. Bu islohotlar keyingi davrlarda Buxoro xonligining har tomonlama rivoji uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ernazarova T., Kochnev B. Tangalar o'tmish darakchilari. Toshkent. 1977.
2. Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. Toshkent. 1966.
3. Karimov I.I. Muhammad Shayboniyxon va uning O'zbek davlatchiligi tarixida tutgan o'rni. BMI. Namangan. 2018.
4. Muqimov Z. Shayboniylar davlati va huquqi. Toshkent. 2007.
5. Siyoyev S. "Dasht Qipchoq lochini yohud Muhammad Shayboniyxon qissasi". Adabiy-tarixiy asar. Toshkent. 2021.
6. Xerman Vamberi. Buxoro yohud Movarounnahr tarixi. Toshkent. 1990.
7. www.wikipedia.uz. internet sayti